

INGLIZ TILIDAN TARJIMA QILINGAN MATNLAR TAHRIRIDAGI O'ZIGA XOSLIKLAR: TIL IYERARXIYASI VA EKVIVALENTLIK

Orifjon Tolibovich MADVALIYEV

Magistrant

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ОСОБЕННОСТИ РЕДАКТИРОВАНИЯ ТЕКСТОВ, ПЕРЕВОДИМЫХ С АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА: ЯЗЫКОВАЯ ИЕРАРХИЯ И ЭКВИВАЛЕНТНОСТЬ

Орифжон Толибович МАДВАЛИЕВ

Магистрант

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистон

PECULIARITY OF EDITING TEXTS TRANSLATED FROM ENGLISH: LANGUAGE HIERARCHY AND EQUIVALENCE

Orifjon Tolibovich MADVALIEV

Master student

Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan oriftolib@gmail.com

UDC (UO'K, УДК): 81'255.4, 808.2

Iqtibos keltirish uchun (Для цитирования For citation):

Madvaliyev O. Ingliz tilidan tarjima qilingan matnlar tahriridagi o'ziga xosliklar: til iyerarxiyasi va ekvivalentlik // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 2 (49). — B. 115-132.

<https://doi.org/10.36078/1683276988>

Received: February 17, 2023

Accepted: April 17, 2023

Published: April 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Annotatsiya. So'nggi vaqtlarda aslyatdan, jumladan, ingliz tilidan tarjimalar soni oshdi. Biroq ularning sifati, tahrir darajasi turlicha. Tahrir tarjima matnlar darajasini belgilaydigan, unga bevosita ta'sir qiladigan muhim jarayon bo'lsa-da, bu bo'yicha o'zbek tilida tadqiqotlar olib borilmagan. Ushbu maqolada ingliz tilidan o'girilgan matn tahririning o'ziga xosliklari, tarjimada til iyerarxiyasining xususiyatlari, ekvivalentlikni ta'minlash masalalari tadqiq qilingan. Ko'rsatilgan usullar va amaliy misollar tarjima matnlarni baholash, ularni qayta ishlashda qo'l keladi. Ulardan foydalangan tarjimon, muharrir, noshir va jurnalistlar tarjima materialining aslyatga va o'zbek tili tabiatiga mosligini ta'minlay oladi. Bu esa taklif etilayotgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar tarjima matnlarning ravonlik, tushunarlilik va ekvivalentlik darajasini aniqlash, shu asosda matnni qayta ishlash va pirovardida foydalanuvchilarga sifatli mahsulot taqdim etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tarjima; tahrir; til iyerarxiyasi; fonema; grafema; morfema; so'z; so'z birikmasi; jumla; muqobillik; ekvivalentlik; adekvatlik.

Аннотация. В последнее время увеличилось количество переводов с оригинала, в том числе английского. Однако их качество и уровень редактирования различны. Хотя редактирование является важным процессом, определяющим уровень переводимых текстов и оказывающим на него непосредственное влияние, исследований по этому вопросу на узбекском языке не проводилось. В данной статье исследуются особенности редактирования текста, переведенного с английского языка, особенности языковой иерархии в переводе,

вопросы обеспечения эквивалентности. Указанные методы и практические примеры полезны при оценке переведенных текстов и их обработке. Переводчики, редакторы, издатели и журналисты, которые их используют, могут гарантировать, что переведенный материал соответствует оригинальности и характеру узбекского языка. Полученные результаты служат для определения уровня связности, понятности и эквивалентности переведенных текстов для их обработки на этой основе и в конечном итоге для предоставления пользователям качественного продукта.

Ключевые слова: перевод; редактирование; языковая иерархия; фонема; графема; морфема; слово; словосочетание; предложение; альтернатива; эквивалентность; адекватность.

Abstract. Recently, the number of translations from the original, including English, has increased. However, their quality and level of editing vary. The article deals with the peculiarities of editing text translated from English, the features of the language hierarchy in translation, and the issues of ensuring equivalence, which enable translators, editors, publishers and journalists to evaluate the consistency of the source text with the target Uzbek text. The results obtained determine the level of coherence, understandability and equivalence of the translated texts, and provide users with a quality product.

Keywords: translation; editing; language hierarchy; phoneme; grapheme; morpheme; word; phrase; sentence; alternative; equivalence; adequacy.

Kirish. Globallashgan, axboriy chegaralar yo‘qolib ulgurgan hozirgi davrda tarjima matnlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bu esa tarjima matnlar sifatiga talabni ham kuchaytirish zaruratini tug‘diradi. Tarjima shunchaki boshqa tildagi material bilan tanishishgina emas, u boshqa madaniyat, tafakkur, dunyoqarash, bilimga yuzma-yuz kelish, undan oziqlanishdir. Dunyo tamaddunida katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan xalq va millatlarning eng ishonchli tayanchi, poydevori aynan tarjima bo‘lgan.

Taniqli tarjimom Ibrohim G‘afurov tarjimaning ahamiyati haqida gapirar ekan: “Har qanday milliy tilning fikrni aniq ifodalash qudrati og‘zaki va yozma adabiyot amaliyotida, muloqot madaniyatida hosil bo‘ladi. Tilning ifoda salohiyati esa tillardan tillarga tarjimalarda charxlanadi. Bunga ingliz, fransuz, nemis, italyan, ispan, rus, turk tillari yorqin misol bo‘la oladi. Bu kabi tillar ko‘p asrlik faol tarjima jarayonida mislsiz boyigan, ifoda arsenaliga ega bo‘lgan”, deya ta’kidlaydi (3, 33). Darhaqiqat, tarjima alaloqibat tilni, tafakkurni, bilimlarimizni boyitadigan, tasavvur va fikr gorizontlarimizni kengaytiradigan vositadir.

Tarjima tahriri o‘zbek tilida maxsus o‘rganilmagan, bu bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqotlar yo‘q. Ammo tarjima nazariyasi va tarjimashunoslik bo‘yicha anchagina salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Shu yo‘nalishdagi turli o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy tadqiqotlar, maqolalarda tarjima asarlar, jumladan, ingliz tilidan tarjima qilingan matnlar tahririga ham e‘tibor qaratilgan. G‘aybulla as-Salom, Najmiddin Komilov, Quadrat Musayev, Ibrohim G‘afurov, Omon Mo‘minov, N. Qambarov, Abduzohur Abduazizov,

Muhammadjon Xolbekov, Gʻanisher Rahimov, Zuhridin Isomiddinov kabi olim va tadqiqotchilar ham tarjima nazariyasi boʻyicha ish olib bordi. Ular asosiy eʼtiborni rus tilidan oʻzbek tiliga va oʻzbek tilidan rus tiliga, qirgʻiz, qozoq, tatar, turkman, ozarboyjon, qoraqalpoq hamda fors, tojik, arab, hind, xitoy kabi tillardan oʻzbek tiliga bajarilgan tarjimalarni tarjimashunoslikning universal va xususiy masalalari doirasida tahlil qilishga qaratgan (9, 16–17). Tarjimashunos Raima Shirinova esa tarjimada kognitiv dissonans fenomeni va uning ahamiyatini oʻrgangan (10).

Tarjima nazariyasi boʻyicha rus va ingliz olimlari zalvarli ish olib borgan. Oʻzbek tarjimashunoslari ayniqsa rus tarjimashunosligidan koʻp oʻrgangan va taʼsirlangan. A. D. Shveyser, L. B. Barxudarov, V. N. Komissarov, A. V. Fyodorov, R. K. Minyar-Beloruchev, Y. Nayda, L. K. Latishev, Y. I. Retsker kabi olimlar tarjima nazariyasi oid, katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega asarlar yaratdi (9, 47).

Rus olim va tadqiqotchilari tarjima tahriri masalasini ham alohida oʻrganib chiqqan. Jumladan, V. V. Sdobnikov (22), N. S. Zvereva (15), S. M. Vopiyashina (14), O. V. Murduskina (14), O. G. Shetinkova (25), Y. A. Berezovskaya (21), A. O. Ilnor (21) kabi olim va izlanuvchilar tarjima tahririning turli jihatlarini tadqiq qilgan.

Tarjima va uning tahriri sifati bevosita material sifatini belgilab beradi. Olimlar tarjimoni ikki katta asosiy funksional turga ajratadi: badiiy tarjima va axboriy (badiiy boʻlmagan) tarjima. Badiiy tarjima — badiiy adabiyot asarlari tarjimasidir. Bunda tarjimonning bosh vazifasi aslyatdagi badiiy-estetik jihatlarni, uning qimmatini bera olish, tarjima tilida toʻlaqonli badiiy matn yaratishdir. Bu maqsadga erishish yoʻlida tarjimon vositalarni birmuncha erkin tanlaydi va tarjima matnidagi baʼzi detallarni qurbon qilishi mumkin. Axboriy tarjimaning bosh vazifasi — biror-bir axborot, maʼlumotni yetkazish. U oʻquvchiga badiiy-estetik taʼsir koʻrsatishni maqsad qilmaydi. Bunday matnlar qatoriga ilmiy, rasmiy, ommaviy-siyosiy, maishiy va shunga oʻxshash tushdagi matnlar kiradi. Bunday matnlar tarjimasining asosiy maqsadi — undagi axborotni imkon qadar toʻla yetkazish, ekvivalentlikka maksimal darajada erishishdir (16, 115). Ushbu maqolada badiiy matnlarga emas, axboriy yoʻnalishdagi matnlar tarjimasini tahriridagi oʻziga xosliklarga eʼtibor qaratdik. Bunda qiyosiy va nazariy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tarjima va uning tahririda til iyerarxiyasi va ekvivalentlik masalasiga jiddiy eʼtibor qaratish matn sifati yuqori boʻlishini taʼminlaydi.

Asosiy qism. Atoqli rus tarjimashunosi L. S. Barxudarov keltirishicha, tilshunoslikda til iyerarxiyasining quyidagi darajalari farqlanadi:

- fonemalar darajasi (yozma nutq uchun — grafemalar darajasi);
- morfemalar darajasi;
- soʻzlar darajasi;
- jumlar darajasi;

— matn darajasi (12, 175–176).

Olim mana shu beshta darajadagi til birligini tarjima qilish mumkinligini misollar orqali tushuntirib beradi. Masalan, inglizcha Heath familiyasi (hi:θ) shaklida oʻqiladi. Buni rus tilida shu tovushlarga eng yaqin tovushlar yordamida **Хит** shaklida ifodalash mumkin. Ana shu ifoda **fonemalar darajasidagi tarjimadir**. Chunki har bir fonema yoki grafema uchun tarjima tilida mos fonema yoki grafema topildi. Bunday tarjima turi fanda *tarjima transkripsiyasi* yoki *amaliy transkripsiya* deb ataladi.

Misol qilib keltirilgan soʻzni oʻzbek tilida **Hit** shaklida ifodalash toʻgʻriroq. Chunki inglizchadagi *H* tovushi uchun oʻzbekchada *H* boʻgʻiz tovushi koʻproq mos tushadi. Ruschada ana shu tovush yoʻq boʻlgani uchun unga eng yaqin *X* tovushi tanlangan. Lekin oʻzbek tarjimonlari koʻpincha, hatto asliyatdan tarjima qilganda ham fonema va grafemalarni rus tili tartibiga koʻra oʻgiradi. Bu esa til tabiatiga teskari borish, tarjimaning ekvivalentligiga putur yetkazishdir.

Rus tilida tarjima transkripsiyasida har doim ham talaffuzga eʼtibor berilmaydi. Baʼzan soʻz qanday oʻqilishidan qatʼi nazar, harflar (grafemalar) oʻgiriladi. Masalan, **Lincoln** soʻzi *Linken* ('lɪŋkən) oʻqilsa-da, **Линкольн** shaklida yozish qabul qilingan. Ayrim hollarda soʻzning ham oʻqilishi, ham yozilishiga asoslanadi. **Newton** soʻzi aslida *Nyuten* ('nju:. tən) oʻqiladi. Lekin **Ньютон** shakli qabul qilingan. Bunda soʻzning birinchi boʻgʻini uchun fonema, ikkinchi boʻgʻini uchun grafema oʻgirilgan. Oʻzbekchaga ana shu ruscha oʻgirmalar toʻgʻridan toʻgʻri olib qoʻya qolingan.

Shu oʻrinda ikki tushunchaga aniqlik kiritib oʻtish oʻrinlidir. Transliteratsiya — asliyat tilidagi soʻzning grafik (harfiy) tarkibini tarjima tili vositalari bilan aks ettirishdir. Yuqorida misoli keltirilgan *Lincoln* — *Linkoln* juftligi bunga misol boʻladi. Transkripsiya esa tarjima qilinayotgan soʻzning tovush tarkibini tarjima tili harflari orqali ifodalashdir. Bunga *Heath* — *Hit* juftligi misoldir.

Oʻzbek tilida xorijiy atoqli otlarni, jumladan, kishi ismlarini oʻzlashtirish boʻyicha qatʼiy qoidalar bugungacha ishlab chiqilmagan. Odatda rus tilidan koʻchirib qoʻya qolinadi. Natijada turli xatolarga yoʻl qoʻyiladi, til tabiatiga teskari boriladi. Ana shu muammo tufayli Vikipediyaning oʻzbek segmenti oʻzlashma atoqli otlarni aslida yozishni boshladi. Onlayn ensiklopediya baʼzi oʻrinlarda transkripsiya boʻyicha, baʼzi oʻrinlarda transkripsiyasiz berish yoʻlidan boryapti. Bunday ikki xillik koʻpchilikda tushunmovchilik va noroziliklarni uygʻotdi. Masalan, Isaak Nyuton nomi sarlavhada **Isaac Newton** koʻrinishida, maqola ichida **Isaak Nyuton** shaklida berilyapti (4). Bu holat fonema va grafemalarni tarjima qilishni tartibga solish oʻzbek tarjimashunosligi, tilshunosligi oldida turgan, zudlik bilan hal etilishi zarur boʻlgan masala ekanidan dalolat.

Fonema va grafemalar tarjimasida juda keng tarqalgan holatlardan biri joy nomlarini yozishda ruschadan koʻchirish, tarjima qilinayotgan til — oʻzbek tilining imlo qoidalari va tabiatini hisobga olmaslikdir. Bu xatolik kitoblar, qoʻllanmalar, gazeta va jurnallar, elektron nashrlar, hatto darslik va ensiklopediyalarga oʻrnashib

ulgurgan. Ruschadan ko‘chirayotgan tarjimonlar nega bunday yo‘l tutayotganini ko‘pincha anglamaydi, stixiyali tarzda ruscha imloga ergashadi.

Rus tilida qo‘shma so‘z yoki sifatlovchili birikma shaklidagi joy nomlari aslyatda qo‘shib yoki ajratib yozilishidan qat‘i nazar, chiziqcha bilan yoziladi va bu rus tili uchun to‘g‘ri. Masalan, rus tilida *O‘rtabuloq* toponimi *Урта-Булак* shaklida, *Mirzo Ulug‘bek tumani* nomi *Мирзо-Улугбекский район* shaklida yoziladi. O‘zbekchada esa qo‘shma so‘zlar va sifatlovchili birikmalar chiziqcha bilan yozilmaydi. O‘zbek tili uchun juft va takror so‘zlarni chiziqcha bilan yozish xosdir.

Rus tili ishlangan, qoidalari har tomonlama pishitilgan, ko‘p o‘rganilgan til. Ruschada hatto joy nomlari lug‘ati ham bor (23). Unga 40 000 ta toponim kiritilgan. O‘zbekchada esa, afsuski, bunday lug‘at yo‘q. Bizningcha, tarjimashunoslik va ona tilimiz rivoji uchun ana shunday lug‘atlar albatta chop etilishi kerak.

Rus tilidan joy nomlarini ba‘zida o‘zgarishsiz ham olish mumkin. Lekin har doim emas. **H** tovushli toponimlar **g** bilan olinganini bir o‘rinda aytib o‘tsak, yetarli. Chunki bunday so‘zlar juda ko‘p. Gollandiya emas, Hollandiya; Gavayi emas, Havayi va hokazo. Rus tilida *h* tovushi bo‘lmagani uchun ruslar bu tovushni ko‘p o‘rinlarda *g* deb talaffuz qiladi va bu rus tili uchun tabiiy, normal holat. O‘zbek tilida esa *h* ni ayta olamiz, shu sababli *h* bilan yozish o‘zbekchaga mos bo‘ladi.

Nyu York shahri nomini ko‘pincha *Nyu-York* shaklida yozamiz. Aslyatda New York, Yangi York shahri degan ma‘noda. Sifatlovchili joy nomlari, masalan, Yangi Marg‘ilon, Ko‘hna Urganch, Katta Qozirabod o‘zbek tilida ajratib yoziladi. Demak, nomi mazmunan o‘xshash bo‘lgan Nyu Yorkni ham chiziqchasiz yozish zarur (11). Shu o‘rinda alohida ta‘kidlab o‘tmoqchimiz: o‘zbek kirill yozuvidagi **ь** harfini mutlaqo ortiqcha deb hisoblaymiz. Chunki u tilimiz uchun begona, “o‘zbek tilida hech qanday vazifa bajarmaydi; o‘zidan oldingi undoshning yumshoq talaffuz qilinishini ta‘minlaydi, lekin qoida faqat rus tili uchun to‘g‘ridir” (6, 140).

Ruschaga taqlid qilish faqat ingliz tilidan tarjimalarda uchramaydi. Boshqa tillardan, ayniqsa, Yevropa tillaridan tarjimalarda transkripsiya va transliteratsiyada, imloda to‘liq ruschaga ergashiladi.

Masalan, **Kot d’Ivuar** so‘zi fransuzchada *République de Côte d’Ivoire* shaklida yoziladi. Lekin ruscha variantida chiziqcha orttirilgan: **Кот-д’Ивуар**. O‘zbek tilida chiziqcha kerak emas. Chunki u juft yoki takror so‘z emas. Tarjimasi: Fil Suyagi Qirg‘og‘i. Bu so‘zlar orasiga o‘zbekchada chiziqcha qo‘ymaymiz, demak, tarjimada ham chiziqcha qo‘yilmasligi kerak.

Rio de Janeyro shahri nomi ham ruschada *Puo-de-Жанейро* shaklida yoziladi. O‘zbekchada chiziqchalar mutlaqo ortiqcha. Bu shahar nomi portugalcada *Rio de Janeiro* ko‘rinishiga ega va *yanvar daryosi* ma‘nosini beradi. O‘zbekcha tarjima imlo qoidaloriga ko‘ra

chiziqcha talab qilmagani uning transliteratsiyada ham chiziqcha ishlatmaslikka yetarli asosdir (11).

Fonema yoki grafemalar alohida holatda ma'no tashimaydi. Ularning tarjimasini ham juda kichik doirada, asosan atoqli otlar yoki atamalardagina kuzatiladi. Biroq bu jihat ularning tarjimasiga tarjimon yoki muharrir e'tiborsiz qarashi kerakligini anglatmaydi.

Rus tilida bir holat odat tusiga kirgan. George, Charles, William, James kabi inglizcha ismlar rus tiliga *Джордж, Чарльз* (yoki *Чарлз*), *Вильям* (yoki *Уильям*), *Джеймс* shaklida transkripsiya qilinadi. Biroq ular qirollarning nomini anglatganda ruslar lotinlashtirish yo'lidan boradi. Ya'ni bu ismlar lotinchaga ko'ra transkripsiya qilinadi: *Георг, Карл, Вильгельм* va *Яков* (12, 177). Bu rus tilida odat tusiga kirgan va shu til uchun to'g'ri. Lekin o'zbek tilida qirollar nomini bu shaklda berishga sabab va ehtiyoj yo'q. Afsuski, shu paytgacha o'zbekcha matnlarda ham shu holatga ko'r-ko'rona ergashib kelingan. Katta-katta kitoblar, darsliklar va ensiklopediyalarda qirollarning nomi rus tili qoidalariga ko'ra lotinlashtirilgan. Ammo so'nggi yillarda atoqli nomlarni o'zbek tili tabiatiga yoki kamida asliyatga mos shaklda yozishga harakat qilinmoqda. Bunga yetakchi ommaviy axborot vositalari, tarjimonlar, jurnalist va adiblar, bir so'z bilan aytganda, ziyolilar hissa qo'shyapti. Yuqorida tilga olingan qirollar nomining lotinlashtirilishi masalasida ushbu satrlar muallifi ham e'tibor qaratgan (4). Ana shunday harakat va tushuntirishlar natijasida bugun Buyuk Britaniyaning amaldagi qiroli nomi matbuotda lotincha *Karl* shaklida emas, ingliz tiliga (asliyatga) mos tarzda *Charlz* deb berilyapti.

Ba'zi hollarda tarjima birligi morfema (qo'shimcha) bo'lishi mumkin. Bunda asliyat so'zidagi har bir qo'shimchaga tarjima tilida ma'lum bir morfema mos keladi. Masalan, inglizcha *books* — o'zbekcha *kitoblar* so'zi juftligini olaylik. Bu yerda *book* o'zagiga o'zbekchada *kitob* o'zagi, ko'plik qo'shimchasi *-s* ga *-lar* qo'shimchasi mos kelyapti. Mana shu holat **morfema darajasidagi tarjima**dir. Bunday tarjima juda kam uchraydi. Chunki ikki tilda semantik jihatdan muqobil bo'lgan so'zlarning morfologik tuzilishi ko'pincha farq qiladi. Chunki grammatik qo'shimchalar va ularning so'zlarga qo'shilishi aksariyat tillarda farqlidir.

So'z darajasidagi tarjima ham ingliz tilidan tarjimada kam kuzatiladi. Chunki ingliz tili Hind-Yevropa tillar oilasiga mansub bo'lsa, o'zbek tili Oltoy tillar oilasiga mansub. Ikki tilda gap qurilishi, gapda so'z tartibi, so'z yasalishi, so'zning qo'shimchalar qabul qilishi tubdan farq qiladi. Ingliz va rus tillarida esa so'z darajasidagi tarjima ko'p uchraydi. Chunki bu ikki til bir oilaga mansub. Garchi boshqa-boshqa tillar guruhidan joy olgan bo'lsa-da, gap qurilishi, so'z tartibi borasida o'xshashliklari ko'p. L. S. Barxudarov so'z dajasidagi tarjimaga quyidagicha misol keltiradi (12, 179):

He	came	home.
Он	пришел	домой.

Har ikki tilda soʻzlarning joylashuvi va maʼnolari birga bir mos tushgan. Bu jumla oʻzbekchaga oʻgirilganda soʻz tartibi oʻzgarib ketadi:

U	uyga	keldi.
---	------	--------

Gapdagi tartib oʻzgargan boʻlsa-da, bu yerda soʻz darajasidagi tarjima mavjud. Chunki har bir soʻz tarjima birligi sifatida koʻrilgan va alohida-alohida tarjima qilingan.

Soʻzma-soʻz yoki aynan tarjima koʻp oʻrinlarda oʻzini oqlamaydi. Boshlovchi va havaskor tarjimonlar koʻpincha jumlaning soʻzma-soʻz tarjima qilib, tarjimadagi muqobillikni yoʻqotadi. Bunda tarjimon asliyadagi mazmunni emas, jumladagi soʻz yoki soʻz birikmalarni tarjima qilib qoʻyadi. Baʼzan jumla bor, lekin mazmun yoʻq boʻlsa, baʼzan mazmun nuqsonli boʻlib qoladi. L. S. Barxudarov bunga misol qilib “Keep off the grass!” jumlasini tarjimasini keltiradi (12, 186). Agar bu gapni soʻzma-soʻz tarjima qilsak, “Maysadan nari tur!” degan jumla hosil boʻladi. Asliyatga mos, lekin umumiy mazmunga zid. Bu yerda tarjimaning ekvivalentligi yoʻqolgan. Agar uni “Maysani bosmang!” yoki “Maysa ustida yurmang!” deb tarjima qilsak, oʻzbekchada mazmunni toʻlaqonli bergan boʻlamiz. Garchi asliyatda bosish yoki yurish haqida gap boʻlmasa ham, jumlaning mohiyati ayni shu maʼnoni taʼkidlayapti. Demak, muharrir tarjima matnining asliyat bilan aynanligiga emas, muqobilligiga eʼtibor qaratishi, shuni asosiy mezon deb bilishi kerak.

Amaliyotdan bir misol. “How much should my baby weigh?” jumlasini tarjimon “Mening bolam qancha ogʻirlik qilishi kerak?” deb oʻgiran. Bir qaraganda oʻzbekcha, maʼnosi ham tushunarlidir. Lekin ifodasi oʻzbekcha emas. Oʻzbek bunday gapirmaydi, fikrini bu tarzda ifoda etmaydi. Retseptor oʻz tiliga, tabiatiga begona ifodali jumlaning yaxshi qabul qilmaydi. Natijada kommunikativ funktsiya buziladi, tarjimaning ahamiyati susayadi. Xoʻsh, bu jumlada tahrir nuqtayi nazaridan qanday xatoliklar bor?

Ogʻirlik qilish iborasining maʼnosi boshqa, u oʻzini bosmoq, oʻzini qoʻlga olmoq; malol kelmoq; koʻtarishga qiyin boʻlmoq kabi maʼnolarga ega. Demak, bu ibora ayni holatga mos emas. Chunki gap bolaning vazni haqida ketyapti.

Aksariyat holatlarda qaratqichli kishilik olmoshlari ortiqcha, egalik qoʻshimchasining oʻzi maʼnoni bera oladi. Bunday oʻrinlarda olmoshlarni qisqartirish kerak: *mening bolam* — **bolam**, *sening kitobing* — **kitobing**, *bizning vazifamiz* — **vazifamiz**. Bu jumlada ham shunday.

Yuqoridagi tarjimani butunlay boshqacha tarjima qilish zarur. Biz ikki xil variantni taklif etamiz:

Bolamning vazni qancha boʻlishi kerak?

Bolamning ogʻirligi qancha boʻlishi kerak?

Soʻz birikmalari darajasidagi tarjima nisbatan koʻp uchraydi. Uning eng yorqin misoli ideomatik yoki turgʻun (frazologik) birliklar tarjimasidir. Frazologik birliklarning mazmuni undagi soʻzlarning

ma'nosini ifoda etmaydi, aksincha, bunday birliklar yaxlit holda ma'noga ega bo'ladi. Masalan, *boshi ko'kka yetdi* iborasida bosh osmonga qadar yetib borgani haqida ma'no yo'q, bu yerda behad xursand bo'lganlik, katta quvonch ma'nosi mujassam. Bunday birliklarni tarjima qilishda ham asliyatda so'zlar ma'nosi emas, bir butun iboraning ma'nosi tarjima qilinadi va bu so'z birikmasi darajasidagi tarjima hisobga olinadi. Kamdan kam holatlarda asliyat tilidagi iborani so'zma-so'z tarjima qilish o'zini oqlaydi: bunda tarjima tilida ham shu so'zlar ayni ma'nodagi iborani hosil qilishi kerak. Masalan, inglizcha *to play with fire* iborasi o'zbekchada *o't bilan o'ynashmoq* iborasiga ma'nodosh. Bunda asliyat tilidagi so'zlar ham, ibora ma'nosi ham saqlangan.

Agar tarjima matnida quyidagi belgilar kuzatilsa, so'zma-so'z tarjima maqsadga muvofiq emas deb hisoblanadi:

- boshqa ma'noni bersa;
- ma'noga ega bo'lmasa;
- tuzilishi tasavvurga (mantiqqa) mos bo'lmasa;
- tarjima tili metalingvistikasida (psixolingvistikasida) hech narsaga mos kelmaydi;
- nimagadir mos, lekin tilning muayyan uslubiy darajasida emas (19, 277).

Eng ko'p xatoga yo'l qo'yiladigan holatlardan biri ayni shu iboralar tarjimasidir. Amaliyotdan bir misol. "Bebbo" ilovasi matnlarini tahrir qilish jarayonida *How to sleep better and feel more rested?* jumlasini tarjimasiga duch keldim. Bu yerda so'z birikmasi darajasidagi tarjima o'rniga so'zma-so'z tarjima yangilish tanlangan. Rus tarjimoni junlani shunday o'g'irgan:

Как лучше спать и чувствовать себя более отдохнувшими?

O'zbek tarjimonining varianti:

Qanday qilib yaxshiroq uxlash va dam olishni his qilish mumkin?

O'zbekchada mazmun to'laqonli chiqmagan. Buni qisqa va lo'ndaroq, asliyatga mosroq o'g'irish mumkin. **Feel more rested** iborasining so'zma-so'z ma'nosi — o'zini yaxshi dam olgandek his qilmoq. Biroq uni o'zbekchaga bitta so'z bilan tarjima qilish mumkin: **tiniqmoq**. Bu so'z *charchoq, ezilish va shu kabilardan xoli bo'lib, bardam, tetik holatli bo'lish* ma'nosiga ega (5, 101). Ammo hozir bu so'zni mustaqil ishlatmaydigan bo'lib qoldik. Oldin u o'zi alohida ham qo'llangan:

*Uxla, uxla, safaring uzoq, **tiniqib** ol, o'g'lim* (Oybek, "Bolalik").

*Ana shundan keyin bolalarning aqllarigina emas, tanlari ham sekin-sekin **tiniqib** bordi* (M. Ismoilov, "Farg'ona tong otguncha") (5, 101).

Tilimizda shu so'z qatnashgan **tiniqib uxlamok, tiniqib dam olmoq** iboralari ham bor. Bu iboralar *miriqib, charchoq ketadigan (tarqaydigan) bo'lib uxlamok, dam olmoq* ma'nosini anglatadi (5, 101). Bizningcha, yuqoridagi tarjima jumlaning eng yaxshi tahrir varianti quyidagicha:

Qanday qilib yaxshiroq uxlash va tiniqib dam olish mumkin?

Bu o'rinda so'z birikmasi darajasidagi tarjima to'g'ri amalga oshdi va turg'un birikma — ibora asliyatdagi mazmunga mos ekvivalentini topdi.

Tarjimon ba'zida asliyatdagi til ta'siriga tushib qoladi va so'z yoki iborani to'g'ridan to'g'ri ag'darib qo'ya qoladi. Bu o'zaro yaqin tillardan o'g'irganda ayniqsa ko'p kuzatiladi. Masalan, turk tilidan o'zbekchaga qilingan tarjimalar shu kabi sun'iy ag'darmalarga nisbatan boyroq bo'ladi. Tarjimon turkcha iborani o'zbekchada ham deyarli bir xil takrorlaydi. Bu esa ko'pincha o'zini oqlamaydi.

Tarjima tiliga ergashish uzoq tillardan tarjima qilishda ham kuzatiladi. Inglizchadan misol. "O'yin qutisi (Playbox Module)" loyihasi matnidagi "Then the coach can close the session" jumlasini tarjimon "Keyin murabbiy mashg'ulotni yopishi mumkin" deb o'g'irgan. *Close the session* iborasi **mashg'ulotni yopish** tarzida berilgan. Bu o'rinda *session* so'zi **mashg'ulot** deb to'g'ri tarjima qilingan. Chunki gap o'qituvchilar treningi haqida. Biroq **yopish** so'zi yanglish tanlangan. O'zbekcha ifodaga mos emas. Bu o'rinda *tugatish, yakunlash* so'zlarini qo'llash to'g'ri bo'ladi. Bizningcha, bu jumla tarjimasini quyidagi variantlardan biriga tahrirlash to'g'ri bo'ladi:

Keyin (*yoki* shundan so'ng) murabbiy mashg'ulotni tugatishi mumkin.

Keyin murabbiy mashg'ulotni yakunlashi mumkin.

Yana bir e'tiborli jihat: *can* modal fe'li hamisha ham **qila olmoq** deb tarjima qilinavermaydi. Ba'zan **mumkin** deb ham o'giriladi. Bunda imkoniyatga ega bo'lish ma'nosi anglashiladi.

So'z birikmasi darajasidagi tarjima faqat frazeologik birliklar bilangina cheklanib qolmaydi. Ba'zan asliyat tilidagi erkin birikmaning ma'nosi unda qatnashgan so'zlardan kelib chiqadi va u yaxlit holda tarjima qilinadi. Masalan, **to come late** birikmasi o'zbekchaga *kechikmoq, kech qolmoq, to get dressed* birikmasi — *kiyinmoq, kiyim kiyimoq* deb tarjima qilinadi. Garchi asliyat tilida *come, late, get, dressed* so'zlari o'zining lug'aviy ma'nosini saqlab qolgan bo'lsa-da, tarjima chog'ida butun so'z birikmasi tarjima birligiga aylanyapti va yaxlit holda o'girilyapti (12, 182).

Ayrim hollarda jumla darajasidagi tarjima ham uchraydi. Lekin bunda ham so'z birikmasi darajasidagi tarjimada bo'lgani kabi turg'un birikmalar asosiy o'rinni egallaydi. Butun jumla yaxlit tarjima qilinishi uchun u ideomatik xarakterga ega bo'lishi va umumiy mazmuni unda qatnashgan so'zlarning ma'nosiga bevosita bog'liq bo'lmasligi kerak. Bunda butun boshli jumla mazmunga ega bo'ladi. Jumla darajasidagi tarjimalarga maqollar tarjimasini misol bo'la oladi. Masalan, *Kill the goose that laid the golden eggs* maqoli so'zma-so'z tarjima qilinganda tilla tuxum tug'adigan g'ozni o'ldirishni anglatadi. Lekin bunday tarjima qilinsa, maqoldan ko'zlangan kommunikativ maqsad to'la amalga oshmaydi. O'zbek tilida shu maqolga ekvivalent maqol bor, demak, shu maqol bilan o'g'irish to'g'riroq: *O'zing suv ichadigan quduqqa tupurma*. "Maqollarning barcha tillarda yagona

umumiy leksik-semantik ma'noni anglatishi va o'z ekvivalentlariga ega ekanligi ularni boshqa tillarda ancha oson tushunish imkonini beradi. Shunga asosan, badiiy matnlarda inglizcha maqollarni o'zbekchaga tarjima qilish jarayonida ularning kontekstdagi vaziyatini inobatga olish, ularga xos o'zbek tilidagi ekvivalentlari bilan o'girish maqsadga muvofiq. Bu holat tarjima namunasi o'qib tushunishda maqol ma'nosining to'g'ri idrok qilinishiga yordam beradi" (1, 586). Lekin bu qoida har doim ham o'rinli emas, chunki bir tilda bor bo'lgan, ma'lum obrazlar asosida hosil qilingan va o'ziga xos mazmunga ega maqolning ekvivalenti boshqa tilda bo'lmasligi mumkin. Bunday holatlarda maqolni imkon qadar asliyatga mos, undagi ma'noni to'laqonli ifodalaydigan tarzda tarjima qilish zarur.

Boshqa bir misol. "Help yourself" jumlasini asliyatdagi so'z tarkibiga mos o'giradigan bo'lsak, "O'zingizga yordam bering" degan jumla paydo bo'ladi. Lekin bu jumladagi ma'noning asliyatdagi ma'noga aloqadorligi yo'q. Asliyatda bemalol mehmon bo'lishga, tortinmay noz-ne'matlardan totinishga chaqiriq aks etgan. Jumlani o'zbekchaga "Tortinmang, oling", "Dasturxonga qarang" yoki "Olib o'tiring" tarzida tarjima qilish to'g'ridir.

Demak, yuqoridagi holatlarda jumla so'zma-so'z yoki unda qatnashgan so'zlar yordamida emas, yaxlit tarjima qilinyapti. Xuddi shu holat **jumla darajasidagi tarjimadir**.

L. S. Barxudarov matn darajasidagi tarjimalar asosan she'riyat tarjimasida kuzatilishini ta'kidlaydi. She'rlar tarjimasida ba'zan misralardagi so'zlar, hatto jumlar ham o'z ma'nosiga qarab emas, misra yoki baytning umumiy mazmuniga qarab o'giriladi. Bunday holatda so'z yoki jumalarning ma'nosi asliyatga birga bir mos tushmaydi, lekin misra yoki baytning tarjimasida asliyatdagi mazmun, badiiy-estetik bo'yqordorlikni ifodalashga xizmat qiladi. Ana shu holat **matn darajasidagi tarjimadir**. Bu turdagi tarjima tadqiqot ishimizning o'rganish obyekti bo'lmagani uchun bu masalaga batafsil to'xtalib o'tmaymiz.

Fonema, grafema, morfema, so'z, so'z birikmasi va jumla darajasidagi tarjima bir-biriga bevosita bog'langan holda ham kelib qolishi mumkin. Savolli yoki noaniq o'rinlarda tarjimon, agar tarjimon e'tibordan qochirgan bo'lsa, muharrir manbalarga murojaat qilishi kerak.

Amaliyotdan misol. Ommaviy axborot vositalarida tez-tez uchraydigan **Katta yettilik**, **Katta yigirmatalik** iboralari aslida xato. Bu yanglishishning ildizi 1990-yillarga borib taqaladi. Rus publitsistlari o'sha paytlarda inglizcha **G7** qisqartmasini **Bolshaya semyorka** — *Katta yettilik* deb o'giran. Ibora ilk bor "Kommersant-Vlast" jurnalining 1991-yil 21-yanvar sonida "Bol'tiqbo'yi Gorbachyovga 16 milliard dollarga tushdi. Kamida" maqolasida ishlatilgan (13). Jurnalist G7 ni **Great Seven** — *Katta yettilik* deb o'ylagan. Aslida u **Group of Seven** — *Yettilik guruhi* iborasining qisqartmasi edi. Shunday qilib, bu xato keng yoyilgan va G8, G20 kabi birlashmalarga nisbatan ham qo'llana boshlagan.

Odatda asliyatdan emas, rus tili vositasida tarjima qiladigan, ko‘pincha ruscha manbalarga asoslanadigan matbuotimiz bunda ham ergashish yo‘lidan borgan va yuqoridagi kabi atamalarni *Katta yettilik*, *Katta sakkizlik*, *Katta yigirmatalik* deb qo‘llayvergan. Biroq hozir OAV bu iboralarni asliga mos shaklda ham ishlatyapti.

G7 — Group of Seven — Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Kanada, Fransiya, Yaponiya va AQSHdan iborat norasmiy xalqaro birlashma. Ushbu davlatlar rahbarlarining anjumanlari ham odatda shu nom bilan ataladi.

Jurnalistning birgina e‘tiborsizligi juda katta miqyosda yoyilgan xatoga olib keldi. Bu o‘rinda muharrir ham e‘tiborsizlik qilgan. Inglizcha qisqartmaning kengaytmasi qanday bo‘lishini manbalarga qarab solishtirib ko‘rmagan.

Tarjimaning asliyatga yuz foiz mos bo‘lishi aksariyat hollarda imkonsiz va bunga urinish ham o‘zini oqlamaydi. Chunki mazmun-mohiyatning yo‘qolishi, asliyatdagi kommunikativ maqsad tarjimada amalga oshmasligiga olib keladi. Zamonaviy tarjimashunoslikda tarjimaning aynanligiga emas, **adekvatligi** yoki **ekvivalentligiga** e‘tibor qaratiladi. To‘g‘ri, tarjimaning adekvatligi va ekvivalentligi masalasida turli qarashlar bor va ayrim o‘rinlarda ular farqlanadi ham. Lekin ularning bari tarjimaning mohiyati, uning sifatini belgilashga qaratilgan. Tarjima muharriri tarjimaning to‘laqonli ekani, asliyatdagi mazmun-mohiyat o‘girilgan matnda to‘liq aks etgan-etmaganini tekshirar ekan, o‘z-o‘zidan tarjimaning adekvatligi va ekvivalentligini baholaydi.

Tarjimaning adekvatligi masalasi tarjima nazariyasining bosh masalalaridan biri. *Adekvat tarjima* atamasi o‘tgan asrning 60-yillaridayoq iste‘molga kirgan. Olimlar I. I. Revzin va V. Yu. Rozensveyg bu atamani “to‘laqonli tarjima” deb tushuntirgan va bunda asliyatdagi mazmuni to‘kis va bir xil vositalar bilan berishni nazarda tutgan (20, 68). Tarjimaning adekvatligi deganda uning asliyatga uslubiy va mazmuniy monand bo‘lishi tushuniladi (8, 74). Asl nusxani to‘liq aks ettiruvchi, unga muvofiq va u bilan tenglashadigan tarjima adekvat tarjimadir (8, 8). Tadqiqotchilar adekvatlikni tarjima uchun eng mos yechimlarni topish usuli va jarayoni deb hisoblaydi. Ana shu jarayon natijasida ekvivalentlik yuzaga keladi (24, 176).

Ingliz tarjimashunosi J. Ketford tarjimini “bir tildagi matnni boshqa tildagi muqobil matn bilan almashtirish” deb tushuntirsa, amerikalik tadqiqotchi Y. Nayda tarjima asliyatga “eng yaqin tabiiy muqobil” ekanini aytadi (16, 118). Bu ikki fikr tarjimaning ekvivalentligi uning sifatini belgilab beruvchi jihatligiga urg‘u beryapti.

G‘aybulloh as-Salom tarjima jarayonining mohiyati asl nusxada aks etgan shakl bilan mazmunning birligini, yaxlitligini saqlash uchun bo‘lak tildan muqobil vositalar qidirib topishda ekanini ta‘kidlaydi. Asl nusxa mazmunini boshqa tilda berishning mavjud bir nechta imkoniyatlari orasida eng muqobil va muvofiq variantini tanlash ham adekvat tarjimaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Ana shu

muqobil til vositalarini qidirib topish va muvofiq variant tanlash ijodiy xarakterga ega bo‘lib, tarjima qiluvchi kishi, ya’ni tarjimondan ongli mehnatni talab etadi (7, 150).

Tarjimaning ekvivalentligi, ya’ni muqobilligi asliyat tili va tarjima tilining bir-biriga muqobillik munosabatida bo‘lishini anglatadi. Taniqli rus tarjimashunosi L. S. Barxudarov fikricha, “asliyat tilidagi matnni tarjima tilidagi matn bilan almashtirganda muayyan invariant saqlanishi kerak. Ana shu invariantni saqlash me’yori tarjimaning asliyatga ekvivalentligi me’yorini belgilab beradi” (12, 9). Boshqa bir tarjimashunos L. K. Latishevning fikri ham shunga hamohang: “Invariant — o‘girishdan so‘ng ifodada o‘zgarmay qolgan narsadir. U barcha variantlardagi umumiylikdir” (18, 66). Ya’ni asliyatda bor narsa tarjima tilida ham aks etsa, ekvivalentlikka erishiladi. Ikkisi uchun umumiy bo‘lgan jihatlar, mazmun-mohiyat invariantdir.

Atoqli rus tarjimashunosi V. N. Komissarov fikricha, adekvat tarjima ma’lum ma’noda ekvivalentlikka ega bo‘ladi, biroq ekvivalent tarjima adekvat bo‘lmasligi mumkin (16, 113).

G‘aybulloh as-Salom asliyat va tarjima tili bir-biri bilan teng bo‘lmasligini, ikki tilning lisoniy imkoniyatlari bir-biriga “ekvivalentlik” holatida turmasligini ta’kidlaydi: “Shu sababdan ko‘r-ko‘rona tarjima qilish mumkin emas. So‘zlarning aniq mazmuni bilan estetik sifatlari o‘zaro bir-birining o‘rnini qoplay olmaydi. Shuning uchun ham tekstning tili qanchalik serma’no, badiiy tarafdin serjilo bo‘lsa, tarjima shunchalik qiyinlashadi” (7, 50).

Tadqiqotchi N. V. Shamova adekvat tarjimaga qo‘yiladigan talablar ekvivalent tarjimaga qo‘yiladigan talablardan pastroq, degan fikrni ilgari suradi: “Ekvivalent tarjima — ekvivalentning barcha ko‘rinishlari aks etgan tarjima. Adekvat tarjimada esa tarjimon tarjima maqsadi va qabul qiluvchi (adresat) xarakteridan kelib chiqib, faqat denotativ ekvivalentlikka amal qiladi, ekvivalentlikning boshqa ko‘rinishlarini e’tiborga olmaydi” (24, 179). Denotativ ekvivalentlik deganda asliyatdagi va tarjimadagi matnning fakt va mantiq jihatidan bir xil darajada ekani nazarda tutiladi. Demak, bunday tarjima matnining asosiy xususiyati unda mazmun yetakchilik qiladi. Voqea-hodislar, narsa-buyumlar haqidagi axborot va mantiqiy ketma-ketlik birlamchi sanaladi.

Tarjimashunoslar turli talqinlarni ilgari sursa-da, tarjima alaloqibat asliyatning ma’no-mazmunini imkon qadar to‘liqroq yetkazib berishi kerakligi borasida yakdildir. Bu tahrir nuqtayi nazaridan ham to‘g‘ri. Muharrir tarjima matnini tahrir qilayotganda uning asliyatga mosligini tekshiribgina qolmasdan, uning to‘kis mazmunga egaligi, til tabiatiga mosligi va ko‘zlangan maqsadga xizmat qilayotgani yoki yo‘qligiga jiddiy e’tibor qaratishi zarur.

V. N. Komissarov ekvivalentlikni besh xil turga bo‘ladi. Tarjimashunos birinchi tur haqida gapirar ekan, u asliyatdagi kommunikativ maqsadga ega qismnigina saqlab qolishga qaratilishini ta’kidlaydi (17, 52). Olim misol keltirgan “She lifted her nose up in the air” jumlasiga e’tibor qarataylik. Uni so‘zma-so‘z tarjima qilsak,

“U burnini tepaga ko‘tardi” degan jumla hosil bo‘ladi. Lekin bu gapdan ko‘zlangan kommunikativ maqsad bunday emas, asliyatda jirkanib, past nazar bilan qarash ma‘nosi ifodalangan. Demak, uni “U jirkanib qaradi” yoki “U nafrat bilan boqdi” deyish ko‘zlangan ma‘noni beradi.

Ekvivalentning ikkinchi turida asliyat va tarjimaning umumiy qismi nafaqat kommunikatsiyaning bir xil maqsadiga xizmat qiladi, balki tildan tashqaridagi bir xil vaziyatni ham aks ettiradi. Masalan, “He answered the telephone” jumlasini “U telefonga javob berdi” deb o‘g‘irish mumkin. Lekin bu ifoda til tabiatiga mos emas. Chunki telefonga javob berilmaydi. Telefon orqali javob berilishi yoki suhbatlashilishi mumkin. Bu o‘rinda “U go‘shakni ko‘tardi” deb o‘g‘irish mantiqan to‘g‘ri. Ushbu jumlada kommunikativ maqsad amalga oshishidan tashqari vaziyat ham o‘z ifodasini topgan. Kishi telefon orqali kimgadir javob berishi yoki suhbatni boshlashi uchun telefon go‘shagini ko‘tarishi kerak.

Muqobillikning uchinchi turida leksik tarkib va sintaktik tuzilishda parallellik kuzatilmaydi, asliyat va tarjima strukturasi sintaktik transformatsiya munosabati orqali bog‘lab bo‘lmaydi, asliyatdagi vaziyatning kommunikativ maqsadi va aynanligi saqlanadi, asliyatdagi vaziyatni tushunishga yordam beradigan umumiy tushunchalar saqlanadi. Bunday ekvivalentlikda ba‘zan asliyatdagi eksplitsit (ochiq aytilgan) ma‘lumotlar tarjimada implitsit (ochiq aytilmagan, lekin o‘quvchi o‘zi chaqib oladigan mazmunga ega) ma‘lumotga aylansa, ba‘zan aksi kuzatiladi. Bunda matnning umumiy mazmuni va ma‘no talabidan kelib chiqiladi. Masalan, olim keltirgan “London saw a cold winter last year” jumlasiga e‘tibor qaratsak. Agar bu jumlaning asliyatdagi sintaksisiga va so‘zlarning ma‘nosiga mos tarjima qilsak, “London o‘tgan yili sovuq qishni ko‘rdi” jumlasini paydo bo‘ladi. Lekin bu jumla o‘zbek tili tabiatiga begona, ifoda tarzi o‘zbekcha emas. Demak, asliyatdagi leksik tarkib (so‘zlar takibi) va sintaktik tuzilish (gap qurilishi)dan uzoqlashishga, asliyatdagi ma‘noga mos, lekin undan so‘zlari va tuzilishiga ko‘ra farq qiladigan jumla tuzilishga to‘g‘ri keladi: “O‘tgan yili Londonda qish sovuq bo‘ldi”. Tarjimonlar ko‘pincha ana shu turdagi ekvivalentlikni topishda qiyinchiliklarga duch keladi va xatoga yo‘l qo‘yadi. Muharrir bunday holatlarga diqqatli bo‘lishi, gap bor-u, ma‘no yo‘q o‘rinlarga asliyatga mos ma‘no-mazmunni kirita olishi kerak.

Ekvivalentlikning to‘rtinchi turida uchinchi turdagi xususiyatlar bilan birga tarjimada asliyatdagi sintaktik tuzilishlar ma‘nosi ham bir qadar saqlanadi.

V. N. Komissarov ekvivalentning beshinchi turida asliyat va tarjimaning maksimal yaqinligi kuzatilishini ta‘kidlaydi. Bunday yaqinlik darajasi ko‘pincha bir oilaga mansub va leksik-grammatik xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan tillarda kuzatiladi. Ingliz va o‘zbek tillarida bunday yaqinlik darajasi noyobdir. Buni yuqorida so‘z darajasidagi tarjimalarda ham ko‘rgandik. Masalan, ingliz tilidagi “I saw him at the theatre” jumlasini ruschaga “Я видел его в театре” deb tarjima qilinadi. Bunda gap strukturasi ikki tilda birga bir darajada

mos. Lekin o'zbekchada bunday emas: "Men uni teatrda ko'rdim". O'zbekchada kesim odatda gap oxirida keladi. Mabodo inglizcha tartibda beradigan bo'lsak, bu til tabiatiga ters bo'ladi va o'quvchida (retseptorda) tarjimadan qoniqmaslik hissini paydo qiladi: "Men ko'rdim uni teatrda". Bu o'rinda inglizchadagi *at* predlogi ruschaga *v* predlogi shaklida tarjima qilinyapti va u so'zdan oldin kelgan. O'zbek tilida bu ma'noni predlog emas, suffiks *-da* beryapti. O'zbekchada uni so'zdan oldin qo'llash mutlaqo imkonsiz va ma'noga ega emas.

Tarjimon matnning turi va uslubiga qarab tarjima strategiyasini belgilaydi. Muharrir ham xuddi shu prinsip bo'yicha ishlashi kerak. Aks holda, tarjimadan ko'zlangan maqsad amalga oshmaydi va o'quvchi (retseptor) kutilgan darajada ma'lumot olmaydi yoki ta'sirlanmaydi. Deylik, badiiy adabiyot tarjimasi yoki tahriri bilan ilmiy matn tarjimasi va tahriri o'rtasida katta farq bor. Bunday matnlarni tahrir qilishda qanday o'ziga xosliklar mavjud bo'lsa, bu tarjima matnlariga ham tatbiq etiladi. Odatda tarjimonlar bir yoki bir necha yo'nalishdagi matnlarni o'girishga ixtisoslashadi. Bu holat tahrir ishida ham ko'zga tashlanadi. Agar muharrir o'zi ixtisoslashmagan yoki kam bilim-tajribaga ega bo'lgan sohaga oid matnni tahrir qilsa, katta qiyinchilikka uchraydi va xatoga yo'l qo'yish yoki xatoni o'tkazib yuborish ehtimoli oshadi.

Tarjima matnlarining ekvivalentligi haqida gap borar ekan, bunday matnlar tahririda retseptor, ya'ni shu matnni qabul qiluvchi auditoriyani hisobga olish ham muhimdir. Chunki har qanday tarjima va ommaviy matn alaloqibat ma'lum bir auditoriya uchundir. Demak, ko'p o'rinlarda auditoriyaning yoshi, saviyasi, ijtimoiy holati, kasbi, ruhiyati kabi jihatlarni e'tibordan qochirmaslik zarur. Masalan, ko'krak suti bilan boqishning afzalliklari, uning ona va bola salomatligiga ta'siri haqida matn bor. Avvalo matnning o'zi maqsadli auditoriya uchun yozilishi kerak. Uning tarjimasi va tahririda ham retseptorning xususiyatlari hisobga olinadi. Deylik, xuddi shu mavzudagi matn tibbiyot mutaxassislari uchun bo'lsa, u atamalar, fanga oid tushunchalar, ilmiy va bir qadar murakkab til bilan beriladi. Ammo u yosh onalarga mo'ljallangan bo'lsa, matn imkon qadar sodda va tushunarli bo'lishi, o'quvchida tushunmovchilik paydo qilmasligi zarur. Chunki tibbiy atamalar va tushunchalarni mutaxassis bo'lmagan retseptor anglamasligi, natijada matndan ko'zlangan kommunikativ maqsad amalga oshmasligi ehtimoli oshadi. Mabodo tarjimon shunday xatolarga yo'l qo'yadigan bo'lsa, muharrir bu kamchilikni o'z o'rnida tuzatishi, matnni auditoriya uchun moslashi kerak.

Deyarli barcha tarjimashunos olimlar asliytdagi matnni to'laqonli, yuz foizli tarjima qilish imkonsizligini qayd etadi. Hatto ba'zi olimlar tarjima imkonsizligi nazariyasini ham ilgari suradi. Bunday qarash egalariga ko'ra, ba'zi tillar "rivojlangan", "sivilizatsiyalashgan", boshqalari "rivojlanmagan", "qotib qolgan", "qoloq" (12, 18) bo'lgani uchun tarjima imkonsizdir. Biroq hayotning o'zi bu qarash to'g'ri emasligini isbotlayapti. Tarjima ming yillardan beri turli shakl va ko'rinishlarda yashab kelyapti. Zamonaviy

tarjimashunoslik uchun ham bunday qarash allaqachon eskirib ulgurdi.

Garchi hech bir til boshqa tilni birga bir shaklda in'ikos etmasada, o'z leksik va grammatik xususiyatlari bilan asliyatdagi ma'noni ifodalashga, tillar o'rtasida kommunikatsiya o'rnatishga qodir. Albatta, ba'zi adabiy shakllar, madaniyat, tarix va urf-odatlariga bog'liq tushunchalar, ayrim realiyalarni tarjimada ifodalash imkonsizligi ko'p isbotlangan. Biroq ba'zida oddiy jumalarni o'girishda ham muammolar yuzaga kelishi mumkin. Tarjimashunos V. N. Komissarov bunga misol qilib "The student is reading a book" jumlasini keltiradi. Bu jumla odatda "Talaba kitob o'qiyapti" deb tarjima qilinadi va buni ko'pchilik normal qabul qiladi. Lekin tarjimada originaldagi ma'no-mazmun to'liq aks etmagan. Ingliz tilida talaba so'zlovchiga tanish ekani, u o'qiyotgan kitob esa notanish ekani ma'nosi bor (16, 117). Demak, tarjimada ma'no bir qadar yo'qotilyapti. Lekin bu tarjimaning kommunikativ vazifasi bajarilishiga to'sqinlik qila olmayotgani yo'q. U asliyatdagi bosh mazmuni, jumlaning mohiyatini yetkazib bera olyapti.

Xulosa. Tarjima muharriri matndagi noqisliklarni ko'ra olishi uchun chet tilini ham, o'z tilini ham puxta, chuqur bilishi kerak. Qaysi o'rinda fonema (grafema), morfema, so'z, so'z birikmasi, jumla yoki yaxlit matn tarjimasi talab etilayotganini asliyat va o'z tili talablaridan, tabiatidan kelib chiqib belgilashi zarur. Asosiy maqsad asliyatga birga bir moslik emas, uning ma'no-mazmuni, mohiyatiga eng yaqin darajadagi muqobillikdir. Retseptor, ya'ni o'quvchi, tinglovchi yoki tomoshabin tarjima matni to'laqonli tushunmasa, asliyatdagi mazmuni anglamasa, matndan ko'zlangan kommunikativ maqsad amalga oshmaydi. Bu esa tarjimaning muvaffaqiyatsizligidir.

Tarjima jarayonida asosiy ishni tarjimon bajaradi. Agar tarjima sifatsiz bo'lsa, hatto muharrir tekshiruvidan keyin ham matndagi asoratlar saqlanib qolishi mumkin. Demak, yuqorida sanab o'tilgan turli darajalardagi tarjima birliklarini to'laqonli tarjima qilish talabi avvalo tarjimonga qo'yiladi. Shu bilan birga, "tarjimonga qo'yiladigan tarjimaga kommunikativ-funksional yondashish talabi muharrirga ham to'liq tatbiq etilishi kerak" (22, 153).

Bizningcha, tarjimon ham, muharrir ham bir jihatga jiddiy e'tibor qaratishi zarur: asliyat tilidagi barcha xususiyatni tarjima tilida aks ettirishga har doim ham ehtiyoj bo'lavermaydi. Eng muhimi kommunikativ maqsad amalga oshishi, mazmun-mohiyatni berish, ekvivalentlikka erishish bo'lishi zarur.

Tarjima tahririda malaka va salohiyatga ega bo'lish uchun tahrir amaliyotining o'zi yetarli emas. Tarjima muharriri tarjimonlik bilan ham shug'ullanishi zarur. Ana shundagina u bu sohaning sir-asrorlarini keng o'rganadi, katta tajriba orttirib, mehnat bozorida talabgir kadrqa aylanadi.

Tarjima tahriri sohasida qilinadigan ishlar hali ko'p. Bu yo'nalishda o'zbekcha kitob yoki qo'llanma mavjud emas. Sifatli, mavzuning asosiy jihatlarini qamrab olgan qo'llanma yaratish zarur. Xorijiy joy nomlari, atoqli otlar va o'zlashmalarni transkripsiya va

transliteratsiya qilish qoidalari ishlab chiqilishi kerak. Shundagina tarjimon yoki muharrir ma'lum bir ilmiy asosga ega bo'ladi. So'ng ushbu qoida va yo'riqlar keng jamoatchilik, ziyolilar orasida ommalashtirilishi talab etiladi. Ommalashtirish, umumqo'llov bo'lmasa, imlodagi turfaxillik va chalkashliklar davom etaveradi.

Tarjimonlik va jurnalistika sohasida ta'lim olayotgan talabalar uchun tarjima matnlar tahriri bo'yicha darslar o'tilishi, mavzuning mohiyati hayotiy misollar bilan tushuntirilib, amaliyot bilan mustahkamlanishi zarur. Shunda bu borada sezilarli siljishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurov Sh. S. Ingliz va o'zbek tillaridagi internatsional maqollar tarjimasidagi assimetrik holatlar // Молодой учёный. — 2020. — № 18 (308). — Б. 584–586.
2. Charlzmi yoki Karl: qaysi biri muqobil? (Elektron manba) // Azon.uz nashri. — URL: <https://azon.uz/content/views/charlzmi-yoki-karl-qaysi-biri-muqobil> (murojaat vaqti: 05.03.2023).
3. Ibrohim G'afurov bilan intervyu. Badiiy tarjima nusxa ko'chirish emas // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2015. — № 3 (7). — Б. 31–37.
4. Isaac Newton (Elektron manba) // Vikipediya. Ochiq ensiklopediya. — URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Isaac_Newton (murojaat vaqti: 07.03.2023).
5. O'zbek tilining izohli lug'ati / E. Begmatov va boshqalar tahriri ostida: 5 jildli. 4-jild. — Toshkent: O'zME, 2020. — 608 b.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi / 12 jildli. 10-jild. — Toshkent: O'zME, 2005. — 656 b.
7. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. — Toshkent: O'qituvchi, 1978. — 220 b.
8. Sodiqov Z., Abdurahmonova D. Tarjimashunoslik terminlarining ko'ptilli lug'at-ma'lumotnomasi. — Namangan: Namangan davlat universiteti, 2013. — 128 b.
9. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. I. G'ofurov, O. Mo'minov, N.Qambarov. — Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012. 216 b.
10. Ширинова Р. Х., Tarjimada kognitiv dissonans muammosi // Xorijiy filologiya. — 2019. — №1. — Б. 24–38.
11. Tolib O. Xorijiy joy nomlari imlosi va erkinlik hissi. (Elektron manba) // oriftolib.uz. — URL: <https://oriftolib.uz/3805> (murojaat vaqti: 09.01.2023).
12. Бархударов Л. С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). — Москва: Международные отношения, 1975. — 240 с.
13. Большая семёрка (Электронный источник) // Википедия. Свободная энциклопедия. — URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/Большая_семёрка (дата обращения: 13.12.2022).
14. Вопияшина С. М., Мурдускина О. В. Обучение редактированию перевода как способ повышения качества

- подготовки лингвистов-переводчиков // Балтийский гуманитарный журнал. — 2016. — № 4 (17). — С. 176–179.
15. Зверева Н. С. Роль редактирования в процессе перевода // Полилингвильность и транскультурные практики. — 2009. — №2. — С. 115–120.
16. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. Курс лекций. (Книга). — Москва: ЭТС, 1999. — 192 с.
17. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): Учебник для институтов и факультетов иностранных языков. — Москва: Высшая школа, 1990. — 253 с.
18. Латышев Л. К. Курс перевода: Эквивалентность перевода и способы ее достижения. — М., 1981. — 248 с.
19. Насруллаева Т. С. Эквивалентность и адекватность перевода научно-технических текстов // Экономика и социум — 2021 — №1(80). — С. 274–280.
20. Ревзин И. И., Розенцвейг В. Ю. Основы общего и машинного перевода. — М., 1964. — 244 с.
21. Редактирование письменных переводов: теория и практика: учеб.-метод. пособие / Е. А. Березовская, А. О. Ильнер [под общ. ред. Л. И. Корнеевой]. — Министерство науки и высшего образования Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2019. — 135 с.
22. Сдобников В. В. Принципы профессионального редактирования переводов // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. — 2018 — № 2. — С. 152–156.
23. Словарь географических названий зарубежных стран [сост. Л. И. Аненберг и др.]. — Москва: Недра. — 1986. — 296 с.
24. Шамова Н. В. Разграничение понятий “эквивалентность” и “адекватность” в переводе // Вестник Московского университета. Серия 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. — 2005. — № 2. — С. 171–180.
25. Щетинкова О. Г. Использование алгоритмов в процессе редактирования текста перевода // Вестник ПНИПУ. Проблемы языкознания и педагогики. — 2015. — № 2 (12). — С. 37–42.

References

1. Ashurov Sh. S. *Molodoj uchyonyj*, 2020, No. 18 (308), pp. 584–586.
2. *Charlzmi yoki Karl: qaysi biri muqobil* (Charles or Karl: which is the alternative), available at: <https://azon.uz/content/views/charlzmi-yoki-karl-qaysi-biri-muqobil> (accessed 05.03.2023).
3. Toshpulatova N. *Uzbekistonda xorijiy tillar*, 2015, No. 3 (7), pp. 31–37.
4. *Isaac Newton*, Vikipediya, available at: https://uz.wikipedia.org/wiki/Isaac_Newton (accessed 07.03.2023).
5. *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* (Explanatory Dictionary of the Uzbek language), vol. 4, Tashkent: O‘zME, 2020, 608 p.

6. *O'zbekiston milliy ensiklopediyasi* (National Encyclopedia of Uzbekistan), vol. 10, Tashkent: O'zME, 2005, 656 p.
7. Salomov G'. *Tarjima nazariyasiga kirish* (Introduction to Translation Theory), Tashkent: O'qituvchi, 1978, 220 p.
8. Sodiqov Z., Abdurahmonova D. *Tarjimashunoslik terminlarining ko'ptilli lug'at-ma'lumotnomasi* (Multilingual Dictionary-Reference of Translational Terms), Namangan: Namangan davlat universiteti, 2013, 128 p.
9. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. *Tarjima nazariyasi* (Theory of Translation), Tashkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012, 216 p.
10. Shirinova R. Kh., *Xorijiy filologiya*, 2019, No. 1, pp. 24–38.
11. Tolib O. *Xorijiy*, available at: <https://orifolib.uz/3805> (accessed 09.01.2023).
12. Barhudarov L. S. *Yazyk i perevod* (Language and translation), Moscow: Mezhdunarodnye otnosheniya, 1975, 240 p.
13. *Bol'shaya semyorka* (Big 7), available at: https://ru.wikipedia.org/wiki/Bol'shaya_semyorka (accessed 13.12.2022).
14. Vopiyashina S. M., Murduskina O. V. *Baltiiskii Gumanitarnyi Zhurnal*, 2016, No. 4 (17), pp. 176–179.
15. Zvereva N. S. *Polilingvial'nost' i transkul'turnye praktiki*, 2009, No. 2, pp. 115–120.
16. Komissarov V. N. *Sovremennoe perevodovedenie* (Modern Translation Studies), Moscow: EHTS, 1999, 192 p.
17. Komissarov V. N. *Teoriya perevoda (lingvisticheskie aspekty)* (Translation theory (linguistic aspects)), Moscow: Vysshaya shkola, 1990, 253 p.
18. Latyshev L. K. *Kurs perevoda: Ehkvivalentnost' perevoda i sposoby ee dostizheniya* (Translation Course: Translation Equivalence and ways to achieve it), Moscow, 1981, 248 p.
19. Nasrullaeva T. S. *Ehkonomika i socium*, 2021, No.1 (80), pp. 274–280.
20. Revzin I. I., Rozencvejg V. YU. *Osnovy obshchego i mashinnogo perevoda* (Basics of General and Machine Translation), Moscow, 1964, 244 p.
21. Sdobnikov V. V. *Vestnik Voronezhskogo gosudarstvennogo universiteta. Ser.: Lingvistika i mezhkul'turnaya kommunikatsiya*, 2018, No. 2, pp. 152–156.
22. *Redaktirovanie pis'mennyh perevodov: teoriya i praktika* (Editing of Written Translations: Theory and Practicel), Ekaterinburg: Izd-vo Ural. un-ta, 2019, 135 p.
23. *Slovar' geograficheskikh nazvanij zarubezhnykh stran* (Dictionary of Geographical Names of Foreign Countries), Moscow: Nedra, 1986, 296 p.
24. Shamova N. V. *Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya 19. Lingvistika i mezhkul'turnaya kommunikatsiya*, 2005, No. 2, pp. 171–180.
25. Shchetinkova O. G. *Vestnik PNIPU. Problemy yazykoznaniya i pedagogiki*, 2015, No. 2 (12), pp. 37–42.